

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MEYLIEVA MUTABAR SAYFULLAYEVNA**

**TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI INDIVIDUAL  
YONDASHUV ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH METODIKASI**  
**(pedagogik mahorat fani misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

<b>Meyliyeva Mutabar Sayfullayevna</b> Individual yondashuv orqali talabalarning ijodiy qobiliyailarini rivojlaniirish metodikasi .....	3
<b>Мейлиева Мутабар Сайфуллаевна</b> Методика развития творческих способностей студентов на основе индивидуального подхода .....	31
<b>Meyliyeva Mutabar Sayfullayevna</b> Methodology for Developing Students' Creative Abilities through an Individualized Approach .....	63
<b>E'lon qilingan ishlar ro'yhati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	67

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MEYLIEVA MUTABAR SAYFULLAYEVNA**

**TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI INDIVIDUAL  
YONDASHUV ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH METODIKASI**  
**(pedagogik mahorat fani misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped10138 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Shodmonova Shoira Saidovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston  
Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi,104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45- 41; e-mail: [chdpu-kengash@umail.uz](mailto:chdpu-kengash@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ — raqamli reyestr bayonnomasi).

**U.N.Xodjamqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
p.f.d.(DSc), professor

**T.T.Kaziyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**R.A. Eshchanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
biologiya fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada Amerikada sun'iy intellekt asosida moslashtirilgan ta'lim tizimlari keng joriy qilinmoqda. Pedagogik mahoratni oshirish uchun TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli, Angliyada ta'limda individual yondashuvni ta'minlash uchun Bloom taksonomiyasi va "Design Thinking" metodlari, Germaniyada dual ta'lim tizimi talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirish, Janubiy Koreya va Rossiya kabi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida "Tashabbuskor ta'lim" modeli va "Kvantorium" loyihasi doirasida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqilgan turli metod va texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini individual yondashuv asosida optimallashtirish metodikasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, shaxsiy yondashuvni rivojlantirish va talabalarning ijodiy salohiyatini kengaytirishga asoslanadi.

Dunyoda axborot-ta'lim muhiti sharoitida talabalarning mustaqil bilish faolligini oshirish, talabalarda mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, shaxsiy- insonparvarlik yondashuvi asosida talabalarda individual tafakkur uslubini shakllantirish, talabalarda o'zini o'zi rivojlantirish tayanch kompetensiyasini shakllantirish orqali ijodiy qobiliyatlarini-madaniy rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga xizmat qiluvchi muammoli va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalardan foydalanishning didaktik ta'minotini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, talabalarning individualligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan fasilitatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini rivojlantirish dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, talabalarda umumta'limiy kompetensiyalarni shakllantirish, ta'lim oluvchilarda shaxsiy-individual faoliyat tajribasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida individual yondashuv tamoyili tobora dolzarb ahamiyat kasb etib, bu uslub har bir talabaga shaxsiy qobiliyat va ehtiyojlardan kelib chiqib ta'lim berishni ta'minlaydi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan individual ta'lim jarayonlari ta'sirchanligi, barqarorligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, individuallikka yo'naltirilgan o'qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifati oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish

chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-ok-abrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy Ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy Ta'lim muassasalarida Ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ta'lim vositalarini aniqlash, ularni takomillashtirish yo'llarini belgilab berish, o'quv jarayonida talabalarning o'ziga xosligini hisobga olish kabi muammolarga oid masalalarni yurtimiz olimlaridan bugunga kunga qadar B.Adizov<sup>2</sup>, J.Yo'ldoshev<sup>3</sup>, M.Maxmudov<sup>4</sup>, U.Nishonaliyev<sup>5</sup>, N.Saidaxmedov<sup>6</sup>, U.Musayev<sup>7</sup>, A.Maxmudov<sup>8</sup>, Sh.Abdullaeva<sup>9</sup>, Sh.Sharipov<sup>10</sup>, M.Ochilov<sup>11</sup>, R.Safarova<sup>12</sup>, E.G'.G'oziyev<sup>13</sup>, M.G.Davletshin<sup>14</sup>, Z.Nishonova<sup>15</sup>larning ishlarida qisman hisobga olingan bo'lib, mualliflarning ishlarida o'ziga xoslik, talabaning individualligi, uning yaxlitligini ifodalovchi birlik sifatida o'zgaruvchanligi, dinamikligi, xatti-harakatlari hamda erkinligini ifodalaydi. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida O.S.Grebenyuk<sup>16</sup>, B.Matyunin<sup>17</sup>, Y.M.Orlov<sup>18</sup>, Y.I.Matveeva<sup>19</sup>, I.S.Ordinkina<sup>20</sup>, A.V.Suvorov<sup>21</sup>,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. QHMMB: 06/19/5847/3887-son 09.10.2019 й. <https://lex.uz/docs/4545884>

<sup>2</sup> Adizov B.R. – Ta'lim jarayonida didaktik vositalardan foydalanishning nazariy asoslari. Toshkent: Fan, 2006.

<sup>3</sup> Yo'ldoshev J.G'. – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 2005.

<sup>4</sup> Maxmudov M. – Didaktika asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.

<sup>5</sup> Nishonaliyev U. – Pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlari. Toshkent: Universitet, 2010.

<sup>6</sup> Saidaxmedov N.S. – Pedagogik kompetentlik va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan, 2012.

<sup>7</sup> Musayev U. – O'quv jarayonini tashkil etishning psixologik-pedagogik asoslari. Toshkent: Universitet, 2009.

<sup>8</sup> Maxmudov A. – Ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Sharq, 2011.

<sup>9</sup> Abdullayeva Sh. – Pedagogik jarayonda talaba shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish. Toshkent: Fan, 2013.

<sup>10</sup> Sharipov Sh. – Pedagogik mahorat va zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: O'qituvchi, 2014.

<sup>11</sup> Ochilov M. – Pedagogik jarayonni tashkil etishning innovatsion usullari. Toshkent: Ilm Ziyi, 2015.

<sup>12</sup> Safarova R. – Ta'lim jarayonida shaxsiy yondashuvning ahamiyati. Toshkent: Universitet, 2016.

<sup>13</sup> G'oziyev E.G'. – Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.

<sup>14</sup> Davletshin M.G'. – Psixologiya: nazariy va amaliy asoslari. Toshkent: Fan, 1997.

<sup>15</sup> Nishonova Z. – Pedagogik tadqiqot metodlari. Toshkent: Universitet, 2004.

<sup>16</sup> □ Гребенюк О.С. – Педагогика: Учебное пособие для студентов педагогических вузов. Минск: ТетраСистемс, 2003. – 368 с.

<sup>17</sup> Матюнин Б.И. – Дидактические основы использования средств обучения в вузе. Москва: Педагогика, 2001. – 215 с.

I.Unt22lar talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy omili sifatida didaktik vositalarini ko'rsatib o'tganlar. Chunonchi o'quv vazifalarining talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati O.A.Andreev<sup>23</sup>, O.N.Perelygina<sup>24</sup>, A.S.Potapov<sup>25</sup> didaktik o'yinlarning talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati, L.S. Vygotskiy<sup>26</sup>, O.S. Grebenyuk<sup>27</sup>, S.L. Rubinshteyn<sup>28</sup>, D.B.Elkonin<sup>29</sup>, A.V.Leontiev<sup>30</sup>, A.M.Matyushkin<sup>31</sup>, V.M.Serikov<sup>32</sup>, V.M.Simonov<sup>33</sup>, I.S.Yakimanskaya<sup>34</sup>; o'quv loyihalarining talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi, Y.A.Kryukova<sup>35</sup>, A.V.Paxomov<sup>36</sup>lar, individual ta'lim talabalar o'zlarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishlari A.V.Tereshenko<sup>37</sup>, talabalarining individual bilim olish yo'larini pedagogik qo'llab-quvvatlash M.V.Alishina<sup>38</sup>, bolani ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish P.Ya. Galpirin<sup>39</sup> tomonidan tatqiq etilgan.

Xorijiy davlatlarda talabalarining o'zlari egallagan bilimlarini ijodiy qobiliyatlarini faoliyatlari orqali namoyon qilishlariga bo'lgan ehtiyojning mavjud jihati A.Maslou<sup>40</sup> talabani kreativlikka undovchi asosiy mayl, uning o'z ijodiy

---

18 Орлов Ю.М. – Психология и педагогика личности. Москва: Академия, 2004. – 256 с.

19 Матвеева Ю.И. – Индивидуализация обучения студентов в условиях вуза. Санкт-Петербург: СПбГУ, 2005. – 180 с.

20 Ординкина И.С. – Педагогические условия развития творческих способностей учащихся. Самара: Самарский университет, 2010. – 195 с.

21 Суворов А.В. – Педагогические технологии в развитии творческого потенциала студентов. Москва: Изд-во МГУ, 2012. – 230 с.

22 Унт И. – Индивидуализация и дифференциация обучения. Москва: Педагогика, 1990. – 192 с.

23 Андреев О.А. – Педагогические условия развития творческих способностей студентов. Москва: Педагогика, 2002. – 210 с.

24 Перельгина О.Н. – Психология индивидуального развития личности. Москва: Академический проект, 2008. – 256 с.

25 Потопов А.С. – Методика организации учебных заданий как средство развития творческих способностей. Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2004. – 190 с.

26 Выготский Л.С. – Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Педагогика, 1991. – 92 с.

27 Гребенюк О.С. – Педагогика: Учебное пособие. Минск: ТетраСистемс, 2003. – 368 с.

28 Рубинштейн С.Л. – Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер, 2000. – 720 с.

29 Эльконин Д.Б. – Психология игры. Москва: Педагогика, 1978. – 304 с.

30 Леонтьев А.Н. – Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Смысл, 2004. – 352 с.

31 □ Матюшкин А.М. – Проблемные ситуации в мышлении и обучении. Москва: Педагогика, 1972. – 208 с.

32 Сериков В.М. – Личностный подход в образовании: концепция и технологии. Волгоград: Перемена, 1994. – 152 с.

33 Симонов В.М. – Развитие творческих способностей студентов в учебном процессе. Москва: Академия, 2005. – 245 с.

34 Якиманская И.С. – Личностно-ориентированное обучение в современной школе. Москва: Сентябрь, 2000. – 192 с.

35 Крюкова Я.А. – Проектная деятельность учащихся как средство развития творческих способностей. Нижний Новгород: Изд-во ННГУ, 2011. – 180 с.

36 Пахомов А.В. – Проектная методика обучения: теория и практика. Москва: ВЛАДОС, 2003. – 176 с.

37 Терещенко А.В. – Индивидуальные образовательные траектории студентов в условиях высшей школы. Самара: Самарский университет, 2012. – 198 с.

38 Алишина М.В. – Педагогическая поддержка индивидуальных образовательных маршрутов студентов. Казань: Казанский университет, 2010. – 164 с.

39 Гальперин П.Я. – Методы обучения и умственное развитие ребенка. Москва: Изд-во МГУ, 1985. – 144 с.

40 Maslow A.H. – Motivation and Personality. New York: Harper & Row, 1954. – 369 p. Maslow A.H. – Toward a Psychology of Being. New York: Van Nostrand, 1968. – 240 p.

qobiliyatlarini imkoniyatlarini namoyon qilishga bo'lgan intilishi K.R.Rodgers<sup>41</sup>, J.Piaje<sup>42</sup>, K.Kofki<sup>43</sup>, L.Fridman<sup>44</sup>, D. Djan<sup>45</sup>, kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayonida talabalarga individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi dissertatsion tadqiqot obyekti bo'lgan emas.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amalga oshirish mexanizmlari" (2018-2023) mavzusidagi ilmiy amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning nazariy jihatlarini va shart-sharoitlarini aniqlash;

ta'lim jarayoni sub'ektlarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

individual yondashuvga muvofiq talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan baholash mezonlarini takomillashtirish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** ta'lim jarayonida talabalarning individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlarida Qo'qon davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Shaxrisabz pedagogika instituti 412 nafar respondent-talabari jalb etilgan.

**Tadqiqot predmeti** ta'lim jarayonida talabalarning individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy, psixologik-pedagogik, metodik, maxsus adabiyotlarni, dissertatsiya ishlarini o'rganish va tahlil qilish; o'quvchilarni tayyorlashni amalga oshiruvchi umumta'lim muassasalari dasturlarini tahlil qilish; ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish; ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni anketa-so'rovnoma, testlar orqali o'tkazish; o'quv materiallarini, o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va ularni tajriba-sinovda tekshirib ko'rish.

---

41 Rogers C.R. – On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p. □ Rogers C.R. – Freedom to Learn. Columbus, OH: Merrill, 1969. – 358 p.

42 Piaget J. – The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 1950. – 182 p. □ Piaget J. – The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press, 1952. – 419 p.

43 Koffka K. – Principles of Gestalt Psychology. New York: Harcourt, Brace and Co., 1935. – 720 p.

44 Friedman L.M. – The Legal System: A Social Science Perspective. New York: Russell Sage Foundation, 1975. – 307. Friedman L.M. – The Legal System: A Social Science Perspective. New York: Russell Sage Foundation, 1975. – 307 p. (Eslatma: Friedman turli sohalarda yozgan, agar siz ta'lim-psixologiya nuqtai nazaridan ishlatsangiz, uning "Personality" va "Education" bo'yicha maqolalariga murojaat qilsangiz to'g'ri bo'ladi).

45 Dewey J. (Джон Дьюи) – Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916. – 430 p. Dewey J. – Experience and Education. New York: Macmillan, 1938. – 116 p.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (motivatsion muhit, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, shaxsiylashtirilgan ta'lim) nazariy jihatlarini yosh xususiyatlariga mosligi, bilim darajasiga muvofiq kelishi, topshiriqlarning ilmiy-amaliy (innovatsion, amaliyotga yo'naltirilgan, kreativ, tadqiqotga asoslangan) ahamiyat kasb etishi, faoliyat tajribasini rivojlantira olishi pedagogik-psixologik tahlil asosida aniqlashtirilgan;

ta'lim jarayoni sub'yektlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi motivatsion, kognitiv va kreativ mezonlarga asoslangan holda takomillashtirilgan, gomogen (bir xil darajadagi, tizimli, muvofiqlashtirilgan, uyg'un) va geterogen (turli darajadagi, integrativ) guruhlarni shakllantirish, didaktik jarayonning kooperativlik va sub'yektivlik jihatlarining ichki aloqadorligini hisobga olish orqali ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali rivojlantirish imkoniyatlari takomillashtirilgan;

individual yondashuvga muvofiq talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modelining amaliy komponenti sifatida didaktik vaziyatlarni (motivatsion, innovatsion, muammoli, refleksiv) yaratish, ijodiy mayllarni (tadqiqotga yo'naltirilgan, qiziqish uyg'otuvchi, individual, interaktiv) hosil qilish, faoliyatni izchil tashkil etish va talabalarda kreativ fikrlashni shakllantirishga doir interfaol mashg'ulotlar tizimi adaptivligi (moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan, differensial, variativ) hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimning mantiqiy tuzilmasi, shaxs rivojlanish sohalarining evristik (intuitiv-tahliliy, muammoli-qidiruv, mustaqil izlanishga asoslangan, kreativ fikrlashni rag'batlantiruvchi) o'qitish usullari bilan gorizont (muammoli-taftish, tadqiqotga yo'naltirilgan, divergent tafakkurni rivojlantiruvchi, ijodiy izlanishga asoslangan) va vertikal (taraqqiyot bosqichlari, strukturaviy izchillik, progresivlik, adaptivlik) munosabatlarining qayta aloqaga kirishuv darajasi natijadorligini (optimal, innovatsion, funksional, interaktiv) ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning tuzilmasi va komponentlari aniqlashtirilgan;

ta'lim jarayoni sub'yektlarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasini baholash indikatorlari ishlab chiqilgan;

individual yondashuvga muvofiq talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir interfaol mashg'ulot ishlanmalari yaratilgan;

talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini oshirishga doir ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan zamonaviy usullar va ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, metodologik bazasining ta'minlanganligi, olingan empirik miqdorlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, xulosa va

tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati talabalarga individual yondashgan holda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar, talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning didaktik xususiyatlari, mazmuni, texnologik qurilishi, didaktik vaziyatlarni yaratish, motivatsiyani hosil qilish, ijodiy qobiliyatlarini faoliyatni tashkil etish yo'llarining ishlab chiqilganligi, talabalarda kreativlikni shakllantirishning ijodiy qobiliyatlarini hissiy- emotsional jihatlari, talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan hamda pedagogika fani talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy- metodik tavsiyalar bilan boyitilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy metodik tavsiyalardan talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etish, uni metodik jihatdan ta'minlashda, darslik mualliflari esa, o'quv dasturlari, darsliklar, metodik qo'llanmalarni talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzular va didaktik topshiriqlar bilan boyitish, metodik qo'llanmalarga talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv vaziyatlari, didaktik o'yinlarni taqdim qilishda, malaka oshirish kurslari tinglovchilari va bo'lajak o'qituvchilarni talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositalari hamda metodlari bilan qurollantirishda foydalanishlari mumkin.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi:** ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalar asosida:

ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun individual ta'lim trayektoriyalarini takomillashtirish va pedagogik fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ishlab chiqish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchiga xos indikatorlarni ixtisoslashgan, individuallashtirish va tabaqalashgan ta'limga muvofiq ishlab chiqilgan metodikalari asosida takomillashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-metodik asoslardan "Iqtidorli bolalar psixologiyasi" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 25 iyundagi 218-son buyrug'i, 218-535 raqamli guvohnoma). Natijada talabalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha pedagogik faoliyatni tashkil etishning amaliy ahamiyatlilik darajasini oshirishga erishilgan;

oliy ta'limda individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan modelda aks etgan komponentlarni ta'limga tatbiq etish, kreativ pedagogika bo'yicha malakasini oshirish va mentorlik tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik asoslardan "Boshlang'ich ta'lim" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 noyabr 491-son buyrug'i, 491057-raqamli guvohnoma). Natijada bo'lajak

o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini zamon talablariga ko'ra ta'minlashga erishilgan.

pedagogika fanlarini integrativ o'qitish asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ijodkorligining mazmuni va didaktik ahamiyati, loyihalashning maqsad va vazifalarini ratsional aniqlash ko'nikmasi hamda amaliyotga yo'naltirilgan, yakka, aralash, jamoaviy-guruhiy komponentlar uyg'unligini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar AI-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarda umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy – axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida amaliyotga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali 2024 yil 17 iyuldagi 07-№308-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarni ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirishda pedagogik mahorat fanlarining imkoniyatlarini tahlil qilish imkoni kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 2020-2024 yillar davomida 10 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, 9 ta respublika 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, taklif va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida muammoning dolzarbligi va zururiyati asoslangan, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining bayoni va uni amaliyotga joriy qilish natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Ta'lim jarayonida talabalarni individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida bir qator chet el va mahalliy olimlarning mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalari tahlil qilingan, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat ekanligi aniqlashtirilgan.

XX asrning boshlaridayoq talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi, ularni o'qitish va tarbiyalash shart-sharoitlariga bog'lanmagan holda

o'rganilganligi haqida aytilgan. Pedagogikada esa shuni aniqlangan-ki, talabalarning ruhiyati va ijodiy qobiliyatlarini saviyasi, ularga beriladigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni va sifatiga ta'sir qiladi. Ushbu muammoni o'rganishda, olimlar D.Dyui, J.Piaje va K.Koffki tomonidan uch xil yondashuv amalga oshirilgan.

Birinchi yondashuvga ko'ra, talabalarning ijodiy qobiliyatlarining taraqqiyoti ularga beriladigan ta'lim-tarbiya orqali ta'minlanadi.

Ikkinchi yondashuv esa, talabalarning taraqqiyoti faqat ta'lim-tarbiyaga emas, balki ular jismida ro'y beradigan o'ziga xos o'zgarishlarga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Uchinchi yondashuvda esa, talabalarning taraqqiyoti ta'lim-tarbiya va ular vujudidagi o'zgarishlar ta'sirida birgalikda rivojlanadi. Bunday yondashuvlar ta'lim jarayonining murakkabligini va talabalar rivojlanishiga turli omillar ta'sir etishini ko'rsatadi.

Nazariy manbalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish sohasida bir qator xorijiy davlatlarda katta pedagogik tajriba to'plangan. Chunonchi, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlarda talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat miqyosidagi dasturlar va rejalar mavjud. Bu mamlakatlarning tajribalaridan ayon bo'ladiki, ular ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng ko'lamli pedagogik muhitni yaratgan. O'qituvchilar har bir talabaning individual xususiyatlarini yaxshi bilib, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni samarali bartaraf etadilar. Har bir talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini aniq belgilashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar amalga oshiriladi. Bu mamlakatlarda individual yondashuv, interfaol mashg'ulotlar va innovatsion pedagogik metodlar orqali talabalarning ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Ta'lim jarayonida doimiy tahlil va monitoring tizimi joriy etilib, talabalarning ijodiy qobiliyatlari bo'yicha o'qituvchilarga aniq va samarali ko'rsatmalar beriladi. Shuningdek, talabalarga ijodiy ishlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan resurslar va yordam ko'rsatish tizimi o'rnatilgan. Bunday yondashuvlar talabalarni ijodiy fikrlashga, yangi g'oyalar yaratishga va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Bu tajribalar o'z navbatida ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi va talabalar o'rtasida ijodiy muhitni yaratadi.

«Ta'lim jarayonida talabalarni individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – ijtimoiy pedagogik zaruriyat.» deb nomlangan birinchi faslida tadqiqot uchun asos bo'luvchi ijodiy qobiliyat tushunchalariga bo'lgan turlicha qarashlar ko'rib chiqilgan (N.Muslimov, V.Zolotseva, B.Xodjayev, M.B.Urazova, O.Musurmonova, M.Mirsoliyeva va boshqalar). Mazkur tushunchalarning dastlabki izohlari bo'yicha D. Simpson, S.Kaplan, Dj. Renzulli, R.Sternberg, A.Tannenbaum, Dj.Feldxyuzena, K.Xeller va boshqa olimlar tadqiq qilgan bo'lsalar-da, bizning fikrimizcha, ular olib borgan izlanishlarda ko'rsatilgan qarashlar etarli darajada asoslanmagan.

Bugungi kunda dunyo miqyosida talaba shaxsini ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishning insonparvarlikka asoslangan ko'p parametrli konsepsiyalari ilgari surilmoqda. Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi o'tgan asrning 60 yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. Biroq, bu masalaga hozirgi kunda yangicha pedagogik paradigma asosida yondashilmoqda. Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga nisbatan mavjud bo'lgan nazariy yondashuvlarga tayanilgan holda shuni aytish mumkinki, bunday rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ularning o'z ijodiy qobiliyatlarini faoliyatlari mohiyatini anglashlaridadir. talabalar o'z faoliyatlari mohiyatini anglamasdan turib, uni izchil tarzda amalga oshira olmaydilar.


Amerikalik psixolog E.P. Torrensning «Kreativlik – bu shaxsning nostandart, ijodiy fikrlash qobiliyati, qarorlar, moslashuvchan fikrlash va yangi g'oyalarni taklif qilish qobiliyati; mavjud bilimlarning nomutanosibligiga nisbatan sezgirlik, shaxsning muammolarga nisbatan sezgirligi va ularni hal qilish yo'llarini topishdir», degan fikri tadqiqotimiz g'oyalariga mos tushadi.

Psixologik lug'atdagi «ijodkorlik» va Torrens bo'yicha «kreativlik» ta'riflarini taqqoslaganda, bu ikki atamaning bir-biridan farq qilishiga guvoh bo'lindi: fikrlashning moslashuvchanligi, yangi bilimlarni izlashga intilish, avvaldan mavjud «qolip»lardan tashqariga chiqa olish qobiliyati. Kreativ faoliyat xususida so'z yuritilganda, mazkur ikki atamani birlashgan tabiati haqida fikrlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu jihatni hisobga olib, «ijod» va «kreativlik» tushunchalarining turli ta'riflarini qiyosiy tahlil etish asosida (I.P.Nikitina, K.Rodjers, R.Sternberg, I.Kulka, P.Torrens, I.P.Ilin, N.Yu.Xryasheva va boshqalar) biz ijodkorlik tushunchasiga quyidagicha mualliflik yondashuvi asosida ta'rif berdik: «ijodkorlik – o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar doirasiga taalluqli vazifalarni hal etishda shaxs va jamiyat qiziqishlari bilan bog'liqlikda insonning konstruktiv va original fikrlashga tayyorligidir».

Ta'lim jarayonida talabalarni individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirish hozirgi zamonning muhim ijtimoiy-pedagogik zaruriyati hisoblanadi. Innovatsion jamiyat sharoitida ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, o'z mustaqil qarorlarini qabul qila oladigan va muammolarga ijodiy yondasha oladigan mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biridir. Har bir talabani alohida shaxs sifatida ko'rib, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv nafaqat ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi, balki jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, individual yondashuv talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'quv jarayonining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaralishi zarur. Shundan kelib chiqib quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi. Shaxsning emotsional, intellektual va ijtimoiy resurslarini birlashtirib, yangi g'oyalar yaratish va ularni samarali amalga oshirish qobiliyatidir.

Dissertatsiyaning «Talabalarni individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirish jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari» deb nomlangan ikkinchi paragrafida, "Individual" so'zining ma'nosi lotincha individuum – "bo'linmas", "yagona", "alohida" degan so'zdan olinganligi ko'rsatilgan. Bu tushuncha talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tashkil

qilishda katta ahamiyatga ega. "Individual" soʻzi, avvalo, alohida bir insonga xos boʻlgan xususiyatlarni anglatadi. Har bir inson oʻziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiyati bilan individualdir. Falsafada esa individual atamasi insonni yoki oʻziga xos bir obʻyektini koinotning boshqa qismidan ajratib turuvchi yagona mavjudot sifatida tushuniladi. Taʼlimda "individual" deganda har bir talabaning shaxsiy qobiliyati, bilimi, tayyorgarlik darajasi va oʻquv uslubini hisobga olish tushuniladi. Talabalar «Men» ini barqaror tahlil qilishning pedagogik-psixologik tuzilishiga eʼtibor qaratish kerakligi amaliyotda namoyon boʻldi. Buning uchun «Men» konsepsiyasining tuzilishiga murojaat qildik.



**1-rasm. "Men" konsepsiyasining psixologik tuzilishi**

Individuallashtirish insonning obʻyektiv ehtiyojlari bilan bogʻliq holda jamiyatda maʼlum darajada alohidalikka intilishi boʻlib, uning yoshligidayoq oʻz-oʻzini namoyon qilishga boʻlgan harakatlarida paydo boʻladi. Bu ehtiyoj quyidagicha namoyon boʻladi:

- a) oʻz qarashlariga ega boʻlish;
- b) oʻziga xosliklarga ega boʻlish;
- v) oʻziga tegishli boʻlgan masalalarni oʻzi hal qilish;
- g) oʻz mavqeiini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish.

Agar shaxsning jamiyatga kirishishida qulay moslashuv va samarali individuallashtirish jarayonlari oʻrtasida tenglik-muvofiqlashuv yuzaga kelsa, shaxsning jamiyatga yaqinlashuvi roʻy beradi. Bundan tashqari bunday vaziyatlarda shaxs-muhit-faoliyatning oʻzaro taʼsir impulsi sodir boʻladi.

Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv hamda transformativ sharoitga moslashuv va faoliyatli individuallashtirish oʻrtasida muvozanat barqaror shakllangandagina amalga oshishi mumkin. Bu ijtimoiy yoʻnalgan jarayon uch asosiy pedagogik-psixologik sohada amalga oshadi:

1. Talabalar jalb etilgan faoliyat turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qoʻlga kiritish, erkin moʻljal olish.


2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor meʼyorlarini oʻzlashtirish.

3. Shaxsiy "Men" obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, oʻz ijtimoiy mansubligi va oʻrnini anglash, oʻziga baho berishni shakllantirish.

S.L.Rubinshteyn shaxs tuzilishini quyidagicha tasniflaydi:

-qobiliyat; -temperament; -xarakter; -iroda; -hissiyotlar; -motivatsiya;

-ijtimoiy qadriyat(ustanovka)lar.




## 2-rasm. Shaxsning tuzilishi

Individual yondashuv taʼlim jarayonida talabaga xos boʻlgan maxsus ehtiyojlarni qondirishni koʻzda tutadi. Bu yondashuvda har bir talabaning alohida xususiyatlari, shu jumladan, uning bilish qobiliyatlari, qiziqishlari va shaxsiy jihatlari inobatga olinadi. Individual yondashuv taʼlim samaradorligini oshirish bilan birga, har bir talabaning ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlaydi. Talabalar oʻz ehtiyojlariga va imkoniyatlariga qarab oʻquv jarayonida turli yondashuvlarga ega boʻlishadi. Bu esa taʼlimda har bir talabaning bilish faoliyatining individual xususiyatlarini aniqlash, psixologik va fiziologik imkoniyatlarini hisobga olishni, maqsadlari va qiziqishlarini oʻrganishni, qiyinchiliklari va oʻquv jarayonidagi ehtiyojlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning mavjud jihatlari uning vazifalari orqali yaqqol namoyon boʻladi. Mazkur vazifalar mujassamlashgan tavsifini aniqlash mumkin.

Bu talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan didaktik jarayonning samaradorlik darajasiga bogʻliqdir. Pedagogika va psixologiyaga oid

adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabani ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni o'zining vazifalariga ega: (3-rasm).



### 3-rasm. Talabani ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni vazifalari

Ushbu vazifalarni amalga oshirish natijasida o'quv jarayonining talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi imkoniyati boyiydi.

Mavjud pedagogik-psixologik nazariyalar shuni asoslaydiki, o'quv faoliyatini tashkil etishda tashqi ta'sirlar asosida talabalarning bilimlari va ko'nikmalari shakllanadi. Bu g'oya o'z vaqtida P.Y. Galperin tomonidan himoya qilingan. Uning konsepsiyasiga ko'ra, talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va ijodiy qobiliyatlarining taraqqiyoti rejali shakllantirilishi kerak. Talabalarning bilimlarni o'zlashtirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni uchta bosqichni o'z ichiga oladi:

- 1) talabalarning diqqati, qiziqishlari va xohishlarini muayyan bilimlarni egallashga jalb etish;
- 2) o'quv harakatlari yo'nalishlarini aniqlash;
- 3) o'quv harakatlarini bajarish.

Shu maqsadda o'quv jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni birinchi navbatda talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasiga asoslanishi va uni taraqqiy ettirishga xizmat qilishi lozim.

Shundan kelib chiqib, talabalarni individual yondashuv asosida o'qitish jarayoni pedagogik va psixologik tamoyillarga asoslanadi. Psixologik nuqtai nazardan, bu yondashuv har bir talabaga uning qobiliyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va o'zlashtirish uslublarini inobatga olgan holda munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish pedagogik jarayonning moslashtirilgan metod va vositalaridan foydalanishni talab etadi. Buning natijasida ta'lim jarayoni talabalarning individual xususiyatlariga mos keladigan tarzda tashkil etiladi va har bir talabaning rivojlanishiga katta yordam beradi.

Dissertatsiyaning "Ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammo sifatida" deb nomlangan uchinchi faslida, bugungi globallashuv va tezkor texnologik rivojlanish davrida ijodiy qobiliyatga ega bo'lish nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim omil ekanligi ta'kidlangan. Shunday ekan, ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu muammo bir necha omillar bilan bog'liq bo'lib, ulardan har biri ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar quyidagilar:

ta'lim tizimi ko'pincha standartlashtirilgan bilimlarni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lib, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga e'tibor yetarlicha qaratilmaydi. Natijada talabalar faqat o'rgatilgan usullarni takrorlashga moyil bo'lib, mustaqil fikrlash va yangicha yondashuvlarni shakllantirishda qiynaladi.

talabalarni ijodiy fikrlashga rag'batlantiruvchi o'quv muhiti etishmasligi muammoning asosiy sabablaridan biridir. Ta'lim jarayonidagi ortiqcha nazorat, qat'iy baholash mezonlari va moslashuvchan bo'lmagan o'quv rejalar talabalarni faqat yod olish va standart topshiriqlarni bajarishga yo'naltiradi.

ijodkorlikni rivojlantiruvchi innovatsion metodlarni qo'llash uchun pedagogning o'zida etarli bilim, malaka va tajriba bo'lishi zarur. Afsuski, ko'plab o'qituvchilar bunday yondashuvlarni o'z darslariga tatbiq etish imkoniyatiga ega emas yoki bunga tayyor emas.

ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi talabalarni ruhiy va emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Aksariyat hollarda, o'quv jarayonidagi bosim va qiyinchiliklar talabalarni o'z g'oyalarini ifoda etishda cheklab qo'yadi.

Zamonaviy texnologiyalar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, lekin ularni faqat o'yin-kulgi yoki axborot olish uchun foydalanish bu imkoniyatlarni cheklaydi. Shundan kelib chiqib, ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi o'quv dasturlarining bir xilligi, o'qituvchilarning metodologik yondashuvlarida etarli darajada innovatsion usullarning yo'qligi, shuningdek, individual yondashuv tamoyillariga to'liq amal qilinmasligi bilan bog'liq.

Muallif ta'rificha, ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – bu har bir talabaga moslashtirilgan pedagogik-psixologik sharoitlar yaratish orqali uning o'ziga xos ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Bu jarayon nafaqat talabaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, balki uni kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim rol o'ynaydigan ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishiga yordam beradi.

Dissertatsiyaning "Ta'lim jarayonida talabalarni individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi" deb nomlangan ikkinchi bobida, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning yangi yondashuvlari keng ko'lamda tahlil qilinadi.

Ushbu metodika motivatsion, kognitiv va kreativ mezonlarga asoslanib, ta'lim jarayonining turli bosqichlarida talabalarning individual ehtiyojlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda shakllantiriladi. Bu yondashuv ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni tashkil etishda bir nechta muhim aspektlarni o'z ichiga oladi va ta'lim jarayonining har bir bosqichida samarali ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan.


Birinchi, metodik yondashuvlarning motivatsion jihatlari ta'lim jarayonining markaziy elementlaridan biridir. Talabalarni ijodiy faoliyatga jalb qilish, ularning qiziqishlarini uyg'otish va yangi bilimlarni o'zlashtirishga rag'batlantirish orqali, ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga erishiladi. Ta'lim jarayonida motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, talabalar o'zlariga qiziqarli bo'lgan mavzularni o'rganishga va muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni izlashga qiziqadi. Motivatsion jihat talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni har bir o'rganish jarayonida yangi imkoniyatlar yaratishga undaydi. Bunda, talabalarning ichki motivatsiyasini rivojlantirish, ularni o'zingizni yaratish jarayoniga jalb qilish, shuningdek, mustaqil o'rganish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga yordam beradi.

Kognitiv mezonlar esa o'quv jarayonining o'ziga xosligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki bu talabalarga mavjud bilimlarni chuqur o'rganish va analitik fikrlashni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Kognitiv jarayonda talabalar o'z bilimlarini faqat yodlash bilan cheklanib qolmay, balki o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida yangi fikrlar yaratish va mavjud masalalarni echish bo'yicha innovatsion yondashuvlar ishlab chiqishda faol bo'ladilar. Talabalar shunday ilmiy va ijodiy jarayonlarda ishtirok etishadi, ularning analitik qobiliyatlari kuchayadi, ular yanada murakkab va chuqur o'rganishga qiziqadi.

Ikkinchi, kreativ yondashuvlar o'quvchilarga o'z bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llash, muammolarni ijodiy usullar bilan hal qilish va yangi g'oyalarni yaratishda yordam beradi. Ijodiy tafakkur talabalarga to'g'ri qarorlar qabul qilish, muammolarni ko'rish va echimlarni izlashda yangi metodlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bunda, gomogen va geterogen guruhlar shakllantirish tamoyillari asosida turli darajadagi talabalar o'rtasida o'zaro ta'sir va hamkorlikni kuchaytirish ko'zda tutiladi. Gomogen guruhlar, ya'ni o'xshash bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalar, o'zaro bilim almashish va o'rganishning samarali usulini yaratadi. Geterogen guruhlar esa turli xususiyatlarga ega talabalar bilan tashkil etiladi va bu turli tajribalarni birlashtirish orqali ijodiy fikrlashni yanada boyitadi. Har ikki yondashuv o'quv jarayonida turli shakllarda ishlaydi va ijodiy faoliyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Uchinchi, didaktik jarayonning kooperativlik va subyektivlik jihatlari hisobga olish metodikaning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kooperativlikni rivojlantirish orqali talabalarning o'zaro hamkorlikda ishlashga bo'lgan qiziqishini oshirish, ular o'rtasida ijodiy fikrlashni kuchaytirish va umumiy maqsadga erishish uchun samarali muhit yaratish mumkin. Kooperativ o'qish talabalarga o'zaro yordam berish, fikr almashish va ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarning kreativ yondashuvlarini

rivojlantiradi va umumiy maqsadga erishishda birlashishga undaydi. Shuningdek, subyektivlikni ta'minlash talabalarning o'z fikrlarini ifoda etish, o'z qarorlarini qabul qilishda erkinlikni oshiradi va ular o'z ijodiy potentsialini to'liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



#### **4-rasm. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini mujassamlashgan taraqqiyoti**

Shunday qilib, pedagogik imkoniyatlarni takomillashtirishda motivatsion, kognitiv va kreativ mezonlarga asoslangan holda gomogen va geterogen guruhlarni shakllantirish, didaktik jarayonning kooperativlik va subyektivlik jihatlarining ichki aloqadorligini hisobga olish orqali talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali rivojlantirish mumkin. Bu yondashuv ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yaratib, talabalar uchun samarali va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.



**5-rasm. Individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli**

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiyotlari ularning ijtimoiy hamda o'quv faoliyatlari ta'sirida amalga oshadi (2.2-rasm). Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiyoti mujassamlashgan o'quv faoliyati natijasida vujudga keladi. O'quv jarayonida talabalarning o'zaro aloqador bo'lgan qator qobiliyatlari ham rivojlantiriladi.

Individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli ta'lim jarayonida har bir talabaga uning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlari inobatga olinishi asosida tashkil etiladi. Ushbu modelda talabalar o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, individual o'rganish uslublari va metodlarini qo'llashga imkon yaratadigan pedagogik strategiyalar ishlab chiqiladi. Shu orqali har bir talaba o'z ijodiy potensialini to'liq ochishga muvaffaq bo'ladi.

Mazkur pedagogik jarayon modeli quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: diagnostika (talabaning individual xususiyatlarini aniqlash), maqsadga yo'naltirilgan rejalashtirish (shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilash), moslashtirilgan metodlar (pedagogik yondashuvlar va o'qitish shakllari), hamda natijaviy baholash (ijodiy o'sishni tahlil qilish). Ushbu model doirasida talabalar bilan olib boriladigan faoliyat ijodkorlik, mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga qaratiladi. Natijada, har bir talabaning individual imkoniyatlariga mos, samarali va ijodiy rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim muhiti yaratiladi. Modelning samaradorligi o'quvchining ijodiy yondashuvi, tashabbuskorligi va muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topish ko'nikmalari orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu jarayonda refleksiya, tahliliy fikrlash va o'zini baholash mexanizmlari ham muhim o'rin egallaydi.

Modelni ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutildi: talabalar kreativ faoliyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqishga doir metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish;

modelning komponentli tuzilmasini aniqlashtirish;

model komponentlari va elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berish;

modelning komponentli tuzilmasi va elementlariga tavsif berish.

Talabalar kreativ kompetentligini rivojlantirishning yuqorida ko'rsatilgan maqsad va vazifalari majmuasi metodologik yondashuvlar bilan bog'liq.

Modelning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Shaxsiy yondashuv – har bir talabaga uning o'quv faoliyatini optimallashtirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun individual yordam ko'rsatish. Bu talabaning o'ziga xos qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limning o'ziga xos usullaridan foydalanishni talab etadi.

Motivatsiya va qo'llab-quvvatlash – talabalarni o'z g'oyalarini erkin ifoda etish, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga undash. Motivatsion yondashuv talabalarni darslarga faol jalb qilish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashni maqsad qiladi.

Interfaol ta'lim usullari – talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun guruhli faoliyatlarni tashkil etish. Bu talabalar o'rtasida o'zaro fikr almashish, ijodiy

fikrlash va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun yangi metodikalar va texnikalarni qo'llash. Masalan, muammoli ta'lim, kreativ yozish, sahnalashtirilgan o'yinlar va boshqalar.

Qaytar aloqa – ta'lim jarayonining samaradorligini baholash, talabalar tomonidan erishilgan natijalarni kuzatib borish va o'rganishning individual yo'nalishlarini tahlil qilish.

Ushbu model ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirishning samarali usullarini yaratadi va har bir talabaning o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishiga yordam beradi.

**1-jadval**

### **Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirish metodlari**

№	Metod nomi	Dolzab muammo sifatida	Qo'llanilishi	Mavzu (ped. mahorat)	Tavsiya etiladigan usul
1	Story Cubes	Ijodiy fikrlashning sustligi	Ilk darsni hikoya shaklida tasvirlash	Darsni rejalashtirish va ijodiy yondashuv	Vizual asosli ijodiy hikoya yozish
2	Design Thinking (Dizayn fikrlash)	Individual yondashuv yetishmasligi	O'quvchi ehtiyojiga mos dars loyihalash	Muammoli o'qitish va ehtiyojga yo'naltirish	Bosqichli muammo hal etish modeli
3	Hero's Journey (Qahramonning sayohati)	Refleksiyaning pastligi	Kasbiy yo'lni sahnalashtirish	Kasbiy refleksiya va o'zini anglash	Rolli o'yin, sahnalashtirish
4	SCAMPER	Yangi metodlarni qo'llay olmaslik	Dars metodikasini ijodiy o'zgartirish	Metodik yangilanish va innovatsiya	Metodik modifikatsiya bosqichlari
5	Free Writing	Pedagogik pozitsiyaning shakllanmaganligi	Erkin yozuvda shaxsiy uslubni ifodalash	Shaxsiy pedagogik konsepsiyani yaratish	Erkin yozuv texnikasi
6	Kaleydoskopik refleksiya"	Qaror qabul qilishdagi qiyinchilik	Pedagogik vaziyatlarga ko'p burchakdan qarash	Vaziyatli tahlil va kompleks fikrlash	Rollar asosida holat tahlili
7	Pedagogik Persona	Identifikatsiyaning yo'qligi	Ideal pedagog obrazini yaratish	Pedagogik identitet va o'ziga xoslik	Persona xaritasi yaratish
8	Bahsli savollar	Darsni boshqarishdagi noaniqlik	"Agar." savollar orqali muammo hal qilish	Improvizatsiya va kreativ yondashuv	"Agar..." savollar asosida munozara

Har bir yondashuv alohida fan, ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. Hozirgi paytda metodlar o'zgarishining haqqoniy zamini ishlab chiqarish jarayonlaridagi ko'pgina kasbdagi ishchilar mehnatining mazmuni va xarakterining kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish sur'atining oshishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan o'quv jarayonini jadallashtirish (talabalarning murakkablashgan mazmunini egallay olmaydilar), ko'nikmalarni maqsadga yo'nalgan holda shakllantirish, faollik, tashabbus o'rgatish imkonini beruvchi yondashuv va kasbiy usullarni qo'llash zarurati yuzaga keladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvda talabalarni ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirish uchun samarali va tizimli 5M metodidir. Ushbu metod talabalar bilan o'qituvchining birgalikda ishlashini ta'minlaydi va quyidagi bosqichlardan tashkil topgan: Maqsad qo'yish, muammolarni aniqlash, masalalarni hal qilish, monitoring qilish va motivatsiya yaratish. 5M metodini qo'llash orqali talabalar ijodiy yondashuvni shakllantiradilar, o'z maqsadlariga erishish uchun samarali usullarni topadilar va o'z qobiliyatlarini boshqarishga o'rganadilar. Bu metod talabalarga darsning maqsadini aniqlashdan boshlab, muammolarni tanib, ularga ijodiy yechimlar topishga, natijalarni baholashga va yakuniy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

**PPP metodi** esa pedagogik faoliyatni yanada interfaol va talabaga yo'naltirilgan tarzda olib borishni ta'minlaydi. Ushbu metodda uch bosqich mavjud: prezentatsiya (Presentation), amaliyot (Practice), va mustaqil ish (Production). PPP metodi talabalarni nafaqat tayyor bilim bilan ta'minlash, balki ularni amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Birinchi bosqichda o'qituvchi yangi materialni taqdim etadi, ikkinchi bosqichda talabalar bu bilimlarni amaliyotda qo'llashadi, va uchinchi bosqichda esa ular mustaqil ishlash orqali o'rganilgan materialni mustahkamlashadi. Bu metod talabalarning ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular nafaqat bilim olishadi, balki o'z fikrlarini mustaqil ravishda ishlab chiqadilar.

**Loyihaviy metod** talabalarni ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ijodiy loyihalar ishlab chiqishga undaydi. Bu metod talabalarga haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilishni o'rgatadi va ularga o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi. Talabalar o'zlari tanlagan mavzuda loyiha yaratadilar, bunda ijodiy yondashuv va analitik fikrlash zarur bo'ladi. Masalan, talabalarga pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun loyiha tayyorlash topshiriladi. Loyihaviy metod yordamida talabalar muammoni aniqlashdan boshlab, muammo yechimlarini topishga va yakuniy natijani taqdim etishga o'rganadilar.

**O'yinli metod** pedagogik jarayonni interfaol va ijodiy tarzda tashkil etishga imkon beradi. O'yinlar orqali talabalar nafaqat bilimlarini mustahkamlashadi, balki o'z ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Rol o'yinlari, didaktik o'yinlar va pedagogik o'yinlar orqali talabalar turli vaziyatlarni simulyatsiya qilishadi, bu esa ularning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi. Misol uchun, talabalar o'qituvchi sifatida darslarni tashkil qilishni o'rganadilar, o'yinlar orqali dars jarayonini yaxshilashga oid ijodiy yechimlarni topadilar.

**Muammoli metod** talabalarni turli pedagogik muammolarni tahlil qilish va ularga ijodiy yechimlar topishga jalb qiladi. Bu metod talabalarni tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga undaydi. Masalan, talabalar o'quvchilarda ijodkorlikni qanday shakllantirish mumkinligi haqida nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishadi. Muammoli metod orqali talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlanadilar va o'z fikrlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Refleksiv metod** esa talabalarning o'qish va o'qitish jarayonini tahlil qilishga qaratilgan. Bu metod yordamida talabalar o'z faoliyatlarini baholaydilar va natijalarni tahlil qilish orqali o'zlarining ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradilar. Talabalar refleksiya jurnallarini yuritishadi va dars jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarini o'zlari baholaydilar. Bu metod talabalarning o'z-o'zini tahlil qilish va o'zgarishlarga ochiqqligini oshiradi.

Ushbu metodlar talabalarni ijodiy va amaliy ko'nikmalarini optimallashtirishga qaratilgan bo'lib, ularning pedagogik faoliyatga chuqur tayyorlanishini ta'minlaydi. Loyihaviy, o'yinli, muammoli va reflektiv metodlar orqali talabalar nafaqat bilim olishadi, balki o'zlarining ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

**5K metodi** zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali yondashuvdir. Ushbu metod talabalarning XXI asrga mos ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchiidan, ijodkorlik (kreativlik) metodini qo'llash orqali talabalar yangicha fikrlashga va o'z g'oyalarini amalda qo'llashga o'rgatiladi. Ijodiy topshiriqlar, masalan, yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish yoki darsda san'atni qo'llash, talabalarni o'z fikrlarini ifodalashda mustahkamlaydi. Talabalar brainstorming sessiyalarida o'z g'oyalarini tezda ishlab chiqish va bir-birlarini ilhomlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ikkinchiidan, tanqidiy fikrlash metodini qo'llash talabalarni turli vaziyatlarni tahlil qilish, asosiy ma'lumotlarni ajratish va aniq xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Darslarda muammoli holatlar yaratish, ilmiy maqolalar va tahliliy bahslar orqali talabalar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradilar. Masalan, talabalar ilmiy maqolalarni tahlil qilib, o'z xulosalarini chiqaradilar, bu esa ularning analitik qobiliyatlarini oshiradi.

Uchinchiidan, muloqot qilish metodini qo'llash orqali talabalar o'z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashga o'rgatiladi. Guruhlarda o'tkaziladigan debatlar va muloqotlar talabalarni samarali muloqot qilishga, qarshi fikrlarni hurmat qilishga va boshqalar bilan konstruktiv munozara o'tkazishga undaydi. Bundan tashqari, talabalar o'z ijodiy loyihalarini taqdimot qilish orqali muloqot qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

So'nggi metod — hamkorlik — talabalarning birgalikda ishlash va jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jamoaviy loyihalar, case-study metodlari va birgalikda ishlash orqali talabalar jamoada o'zaro yordam va mas'uliyatni

bo'lishishni o'rganadilar. Masalan, talabalar birgalikda pedagogik jarayonni takomillashtirish bo'yicha loyiha yaratadilar va o'z fikrlarini guruh bilan muhokama qilib, ijodiy yechimlar topadilar.

Beshinchidan — kompetensiya — talabaning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotda qo'llay olishi, o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olishini anglatadi.

Bu metodlar va usullar talabalarni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda samarali bo'lib, ularning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. 5K metodi yordamida talabalar nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga erishadilar, balki shaxsiy va professional sohalarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallaydilar.

Dissertatsiyaning “Individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim samaradorligi” deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalar tahlili bayon etildi. Biz olib borgan tajriba-sinov ishlari davomida talabalarga individual yondashuv asosida ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning samaradorligini baholashga harakat qildik. Mazkur tajriba Buxoro davlat universiteti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti va Qo'qon davlat pedagogika institutida tashkil etilib, unda jami 412 nafar talaba respondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalariga muvofiq, tajriba jarayoni uch bosqichda tashkil etildi:

Asoslovchi bosqich (2021-2022 o'quv yili) – mavjud holatni tahlil qilish va diagnostik tadqiqotlarni o'tkazish;

Shakllantiruvchi bosqich (2022-2023 o'quv yili) – innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish va ularning natijadorligini tekshirish;

Umumlashtiruvchi bosqich (2023-2024 o'quv yili) – eksperiment natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Tadqiqot vazifalarini amalga oshirishda tajriba-sinov ishining predmeti aniq belgilandi va uni yuqori samaradorlik bilan o'tkazish uchun maxsus ishlab chiqilgan “Individual loyihalar” hamda doirasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanildi.

Tajribaning asosiy maqsadi – talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, shuningdek, bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishning didaktik shart-sharoitlarini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Tajriba jarayonida quyidagi muhim jihatlariga e'tibor qaratildi:

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan o'quv jarayonini loyihalash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

Har xil auditoriyalardagi talabalar bilan tajriba ishlari olib borish;

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

Talabalarning ijodiy rivojlanishini ta'minlovchi istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va ularning samaradorligini baholash.

Tajribaviy tadqiqot quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oldi:

Taʼlim jarayonining samaradorligi va oʻqitish sifatini oshirish texnologiyalarini tahlil qilish;

Talabalar bilim, koʻnikma va malakalarining rivojlanish dinamikasini oʻrganish;

Soha mutaxassis olimlarining falsafiy-pedagogik merosini tadqiq etish va amaliyotga tatbiq etish;

Taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchilarning kasbiy va maʼnaviy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirish;

Murakkab pedagogik holatlarda innovatsion texnologiyalar yordamida muammolarni hal qilish koʻnikmalarini rivojlantirish;

Oʻqituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish salohiyatini oshirish;

Talabalar tomonidan texnologiyalashtirilgan taʼlim variantlarini qabul qilish, oʻzlashtirish va amaliyotda qoʻllash darajasini baholash.

## 2-jadval

### Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik tizimning asosiy natijadorlik mezonlari

Mezon turi	Mezon nomi	Tavsifi
Gorizontal munosabatlar	Muammoli-taftish	Mustaqil fikrlash, tahlil qilish va kreativ echim topish.
	Tadqiqotga yoʻnaltirilgan	Mustaqil izlanish, yangi ilmiy yoʻnalishlarga qiziqish.
	Divergent tafakkur	Muammoni turli usullarda hal qilish, nostandart echimlar topish.
	Ijodiy izlanish	Yangi gʻoyalar yaratish, innovatsion fikrlash.
Vertikal munosabatlar	Taraqqiyot bosqichlari	Individual rivojlanish bosqichlarini hisobga olish.
	Strukturaviy izchillik	Bilim olish, tahlil qilish va ijodiy tafakkur shakllantirish.
	Progresivlik	Oʻzgaruvchan taʼlim sharoitlariga moslashish.
	Adaptivlik	Shaxsiylashtirilgan yondashuv, ijodiy salohiyatni rivojlantirish.
Tizim samaradorligi	Optimal natijadorlik	Taʼlim metodlarining ijodiy tafakkurga mosligi.
	Innovatsion natijadorlik	Ilgʻor texnologiyalar va yangi metodlarni qoʻllash.
	Funksional natijadorlik	Taʼlim metodlarining amaliy va ilmiy izlanishlarga bogʻliqligi.
	Interaktiv natijadorlik	Jamoaviy ijodiy faoliyat va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish.

Tajriba bosqichlari taʼlim jarayonining muhim jihatlariga mos kelib, pedagogika fanlarida talabalar kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan dasturlar samaradorligiga taʼsir koʻrsatdi. Asoslovchi bosqichda tajriba ishi doirasida talabalar

bilan anketa so'rovlari va intervyular o'tkazildi. Tajriba-sinov ishi materiallari to'plandi, tahrir qilindi, natijalar umumlashtirildi va matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilindi. Oraliq va yakuniy natijalarni baholash orqali dastur joriy etilishining samaradorligi aniqlanib, tajriba va nazorat guruhleri o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, umumlashtiruvchi bosqichda respondent-o'qituvchilarning ta'lim sifatini oshirish bo'yicha fikrlari ham inobatga olindi.

Ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni takomillashtirish shaxs rivojlanish sohalari va evristik o'qitish usullarining gorizontal hamda vertikal munosabatlar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash orqali amalga oshirildi. Ushbu tizim samaradorligini aniqlashda ilmiy asoslangan mezonlar quyidagi jihatlar bilan tavsiflandi:

Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun individual yondashuvga asoslangan innovatsion pedagogik usullar samarador hisoblanadi. Tajriba davomida to'plangan ilmiy ma'lumotlar asosida o'quv jarayonini yanada takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

Ushbu natijalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tajriba-sinov ishining bosqichlarida respondentlarning samaradorlik ko'rsatkichi umumlashtirildi (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### Tajriba boshida talabalarga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samaradorlik darajasi ko'rsatkichlari

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajasi sonda va foizda			
		a'lo	yaxshi	o'rta	past
Tajriba guruhida	208	38 18,7	53 25,35	53 25,35	64 30,6
Nazorat guruhida	207	41 20,1	59 28,23	53 25,35	54 26,32

Ushbu jadvaldan tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda Xinilar va shu kabi nazorat guruhidagisini esa Yinjlari orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, a'lo 4 ball bilan, yaxshi 3 ball bilan, qoniqarli 2 ball bilan va past 1 ball bilan belgilaymiz.


Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 4; & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 38; & 53; & 53; & 64; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^4 n_i = 208$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 4; & 3; & 2; & 1; \\ m_i & 41; & 59; & 53; & 54; \end{cases} \quad m = \sum_{i=1}^4 m_i = 207$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi:



**6-rasm. Tajriba boshida talabalarga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish diagrammasi**


Endi tajriba yakunida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimning samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari qanday natijalarga erishilganini ko‘rib chiqamiz.

**4-jadval.**

**Tajriba yakunida talabalarga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samaradorlik darajasi**

Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari sonida va foizda			
		a'lo	yaxshi	o'rta	past
Tajriba guruhida	208	63 30,1	76 36,9	43 20,6	26 12,4
Nazorat guruhida	207	33 15,8	46 23	56 26,8	72 34,4

Ushbu jadvaldan tajriba guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda Xini lar va shu kabi nazorat guruhidagisini esa Yinlar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz, shuningdek, a‘lo 4 ball bilan, yaxshi 3 ball bilan, qoniqarli 2 ball bilan va past 1 ball bilan belgilandi.



**7-rasm. Tajriba yakunida talabalarga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish diagrammasi**

Demak, tajriba va nazorat guruhida talabalarning o'rtacha o'zlashtirishi (71,25 – 55,25)% □ 16% ga oshgan. Bu esa o'z navbatida  $\frac{71,25\%}{55,25\%} = 1,29$  barobar ortiqqligini anglatadi. Bunda ya'ni tajribadan keyin samaradorlikka erishilgan.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimning samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari, tajriba va nazorat guruhida talabalarning o'rtacha o'zlashtirishi 16% ga oshganligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

## UMUMIY XULOSALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari natijasida individual yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimning samaradorligi aniqlab berildi. Quyidagi umumiy xulosalar chiqarildi:

1. Ta'lim jarayonida talabalarni individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini optimallashtirish-zamon talabi bo'lib, bu pedagogik yondashuvning o'zi o'qituvchining shaxsiy yondashuviga, talabalarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv ijtimoiy talablar va pedagogik ehtiyojlarni qondirish uchun zarurdir.

2. Talabalarni individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik va psixologik omillar juda muhim rol o'ynaydi. Psixologik jihatlarni inobatga olish, talabalarning shaxsiy ehtiyojlari va potentsiallarini aniqlash, ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishda samarali bo'ladi.

3. Ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'quv dasturlarining standartlashtirilganligi, ta'limda individual yondashuvning yetarli darajada amalga oshirilmasligi va ijodiy faoliyatni baholashning murakkabligi kabi muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlar zarur.

4. Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon mazmuni har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Mazmunning diversifikatsiyasi va o'qitish metodlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ijodiy faoliyatni rag'batlantirishda samarali bo'ladi.

5. Individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik modelning tuzilishi va usullari, talabalarni o'z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon qilish uchun sharoit yaratadi. Bu yondashuvda o'qituvchilarning ijodiy metod va vositalardan foydalanishi talabalar uchun ijodiy muhit yaratadi.

6. Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan shakl, metod va vositalar muhim ahamiyatga ega. Har bir talabaning o'zi uchun eng samarali bo'lgan shakl va metodni tanlash, o'quv jarayonining shaxsiylashtirilgan bo'lishini ta'minlaydi. Bu usullar talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

7. Tajriba-sinov ishlari va statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim samaradorligi yuqori. Tizimning samaradorligi sifatli va miqdoriy baholash orqali aniqlanadi, bu esa o'quv jarayonining sifatini oshirishga imkon beradi.

#### **Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:**

O'qituvchilar uchun individual yondashuvni o'zlashtirish bo'yicha maxsus treninglar o'tkazish, pedagogik malakalarni oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish lozim.

O'quv dasturlarini talabalar shaxsiyatini va ijodiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqish zarur. Shaxsiy yondashuvning pedagogik samaradorligini oshirish uchun ta'lim mazmunini talabalar qiziqishlariga moslashtirish kerak.

Ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni optimallashtirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni, onlayn platformalar, interaktiv vositalar, o'qitishning gamifikatsiya usullarini kengroq qo'llash.

Shaxsiy yondashuv asosida ijodiy faoliyatni baholashda an'anaviy baholash mezonlari o'rniga, ijodiy jarayonni, talabaning rivojlanishini va uning erishgan natijalarini kengroq o'lchash tizimini joriy etish lozim.

O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi doimiy va samarali muloqotni rivojlantirish, o'quv jarayonida talabalar ijodiy fikrlashini va erkin ifoda etish qobiliyatini rag'batlantirish uchun o'quv guruhlarida interaktiv mashg'ulotlar va ijodiy loyiha ishlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**МЕЙЛИЕВА МУТАБАР САЙФУЛЛАЕВНА**

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ  
НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА  
(на примере предмета педагогическое мастерство)**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (педагогика)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Чирчик – 2025**

**Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2025.2.PhD/Ped10138.**

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.cspu.uz](http://www.cspu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)).

**Научный руководитель:** **Рахманова Мукаддас Кахрамоновна**  
Доктор педагогических наук (DSc), доцент

**Официальные оппоненты:** **Хурвалиева Гармиза Латиповна**  
Доктор педагогических наук, профессор

**Шодмонова Шоира Саидовна**  
Доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 при Чирчикском государственном педагогическом университете (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амир Темура, 104. Тел.: (99870) 712-27-55, факс: (99870) 712-45-41, e-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре в Чирчикском государственном педагогическом университете (зарегистрирована под № \_\_\_\_\_). (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амир Темура, 104. Тел.: (99870) 712-27-55.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(Протокол реестра № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**У.Н.Ходжамкулов**  
Председатель научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Т.Т.Казиева**  
Научный секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор географических наук (DSc), доцент

**Р.А. Эшчанов**  
председатель научного семинара  
при научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
доктор биологических наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В современном образовательном процессе в мире развитие творческих способностей студентов считается одним из важнейших стратегических направлений. В этом направлении в США широко внедряются адаптивные образовательные системы на основе искусственного интеллекта. Для повышения педагогического мастерства используется модель ТРАСК (Technological Pedagogical Content Knowledge), в Великобритании для обеспечения индивидуального подхода в обучении применяются таксономия Блума и методы «Design Thinking», в Германии - дуальная система образования для развития творческого мышления студентов, а в таких развитых странах, как Южная Корея и Россия, используются различные методы и технологии, направленные на развитие творческих способностей в рамках модели «Инициативное обучение» и проекта «Кванториум». Методика оптимизации творческих способностей студентов на основе индивидуального подхода способствует повышению эффективности образовательного процесса. Этот подход основан на применении современных педагогических технологий, развитии персонализированного обучения и расширении творческого потенциала студентов.

В условиях информационно-образовательной среды в мировом образовательном пространстве ведутся интенсивные научные исследования, направленные на повышение самостоятельной познавательной активности студентов, а также на совершенствование дидактической системы развития логического, критического и креативного мышления обучающихся. Особое значение придаётся формированию индивидуального стиля мышления студентов на основе личностно-гуманистического подхода, развитию у них ключевых компетенций самосовершенствования, а также совершенствованию социально-педагогических механизмов культурного развития творческих способностей. Особое внимание уделяется дидактическому обеспечению применения проблемного и развивающего обучения как эффективных технологий, способствующих раскрытию и развитию творческого потенциала студентов. Важным направлением также выступает разработка фасилитационных образовательных технологий, ориентированных на поддержку индивидуальности обучающихся, и развитие субъект-субъектных отношений в образовательном процессе с учётом их интересов, склонностей и стремлений.

В нашей стране уделяется приоритетное внимание совершенствованию системы высшего образования, формированию у студентов общеучебных компетенций, а также развитию их личного и индивидуального опыта деятельности. В целях повышения качества и эффективности образования принцип индивидуального подхода приобретает всё большую актуальность, поскольку обеспечивает обучение с учётом личностных способностей и потребностей каждого обучающегося. Особую значимость приобретает

совершенствование педагогических механизмов, обеспечивающих устойчивость и эффективность личностно ориентированных индивидуальных образовательных процессов. В этом контексте актуальным представляется уточнение дидактических возможностей индивидуализированного обучения, направленного на раскрытие личностного потенциала студентов и формирование устойчивой мотивации к саморазвитию и профессиональному становлению.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных следующими нормативно-правовыми актами, в частности, Указом Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров» от 21 июня 2022 года, Указом Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, а также другие нормативными документами, связанные с этой деятельностью, в определённой степени служат выполнению задач, указанных в исследовании данной диссертационной работы.<sup>46</sup>

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Настоящая научно-исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан I. “Формирование и реализация системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства”.

**Степень изученности проблемы.** Проблемы, связанные с определением средств обучения, путями их совершенствования, а также с учетом индивидуальных особенностей студентов в учебном процессе, частично рассмотрены в работах отечественных ученых, таких как Б.Адизов<sup>47</sup>,

---

<sup>46</sup> Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года. ҚНММВ: №06/19/5847/3887 09.10.2019 г. <https://lex.uz/docs/4545884>

<sup>47</sup> Адизов Б.Р. – Теоретические основы использования дидактических средств в образовательном процессе. Ташкент: Наука, 2006.

Ж.Юлдашев<sup>48</sup>, М.Махмудов<sup>49</sup>, У.Нишоналиев<sup>50</sup>, Н.Саидахмедов<sup>51</sup>, У.Мусаев<sup>52</sup>, А.Махмудов<sup>53</sup>, Ш.Абдуллаева<sup>54</sup>, Ш.Шарипов<sup>55</sup>, М.Очилов<sup>56</sup>, Р.Сафарова<sup>57</sup>, Э.Г.Газиев<sup>58</sup>, М.Г.Давлетшин<sup>59</sup>, З.Нишанова<sup>60</sup>. В исследованиях данных авторов индивидуальность студента рассматривается как целостная, изменчивая и динамичная единица, выражающая его поведение, свободу и особенности.

В странах Содружества Независимых Государств такие исследователи, как О.С.Гребенюк<sup>61</sup>, Б.Матюнин<sup>62</sup>, Ю.М.Орлов<sup>63</sup>, Ю.И.Матвеева<sup>64</sup>, И.С.Ординкина<sup>65</sup>, А.В.Суворов<sup>66</sup>, И. Унт<sup>67</sup>, рассматривают дидактические средства как ключевой фактор развития творческих способностей студентов. В частности, возможности учебных заданий для развития творческого потенциала

---

48 Юлдашев Ж.Г. – Теория и история педагогики. Ташкент: Укитувчи, 2005.

49 Махмудов М. – Основы дидактики. Ташкент: Национальная энциклопедия Узбекистана, 2008.

50 Нишоналиев У. – Педагогические технологии и методы обучения. Ташкент: Университет, 2010.

51 Саидахмедов Н.С.. – Педагогическая компетентность и инновационные подходы. Ташкент: Наука, 2012.

52 Мусаев У. – Психолого-педагогические основы организации учебного процесса. Ташкент: Университет, 2009.

53 Махмудов А. – Методика развития творческого мышления. Ташкент: Шарк, 2011.

54 Абдуллаева Ш. – Учет личностных особенностей студента в педагогическом процессе. Ташкент: Фан, 2013.

